XALQ DEPUTATLARI DOʻSTLIK TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Do'stlik tuman Do'stlik ko'chasi 16 uy +998 99 686 5523 dustlikkengash@mail.ru

2024-yil 27-dekabr VII-4-026-3-47-K/24 Doʻstlik tumani

Doʻstlik tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6,24-moddalari, Budjet kodeksining 27,99-moddalari, “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi OʻRQ-1011-son Qonuniga va Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-20-08-02-39/190-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Doʻstlik Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qarori (keyingi oʻrinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Mazkur qarorga muvofiq, Doʼstlik tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari 75 746 225 ming soʼm, tartibga soluvchi transfert miqdori 5 989 462 ming soʼm va xarajatlari esa 81 735 687 ming soʼm maʼlumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Doʼstlik tumani mahalliy budjetining shaxsiy gʼazna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 392 000,0 ming so'm etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2025-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me'yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek tuman budjeti yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 2025-yil uchun **1 124 961,0 ming soʻm** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamgʻarmasi mablagʻlarini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda

oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilishi ta'minlansin.

5. Qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi A.Latifov, tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻining hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari (B.Daniyarov), tuman soliq inspeksiyasi (M.Normurodov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini koʻrsin.

7. Hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni toʻgʻri shakllantirilishi va oʻz vaqtida taqdim etilishini ta'minlasin.

8. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin va «Doʻstlik hayoti» gazetasida yoritilsin.

9. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Doʻstlik tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (B.Muxtorov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi A.Latifov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



DARVISHEV SHAVKAT TURAYEVICH

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-026-3-47-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Do‘stlik tumani mahalliy budjetining daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
JAMI		**122 145 225**	**75 746 225**
1	Foyda solig‘i	*3 395 000*	*0*
2	Aylanmadan olinadigan soliq	*5 937 000*	*5 937 000*
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*31 303 000*	*31 303 000*
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*799 000*	*799 000*
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	*31 200 000*	*0*
6	Aksiz solig‘i jami	*3 959 000*	*3 959 000*
6,1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*	*0*	*0*
6,2	*Pivo*	*0*	*0*
6,3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*3 959 000*	*3 959 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*2 147 225*	*2 147 225*
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	*4 336 000*	*4 336 000*
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	*13 652 000*	*13 652 000*
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	*6 561 000*	*6 561 000*
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	*0*	*0*
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*11 569 000*	*7 019 000*
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	*0*	*0*
14	Davlat boji	*3 447 000*	*0*

15	Yigʻimlar	*1 290 000*	*0*
16	Jarimalar	*2 517 000*	*0*
17	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	*33 000*	*33 000*

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-026-3-47-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilda umumdavlat soliqlaridan Do‘stlik tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me'yori

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to‘lovchilar	Ajratma me'yori
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
2	**Foyda solig‘i*****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
3	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Pivo**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
5	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
6	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
7	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%

8	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
9	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
10	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
11	**Aylanmadan soliq**	Tuman budjetiga		100%
		Viloyat budjetiga		0%
12	**Davlat boji**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
13	**Jarima**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
14	**Yig‘imlar**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
15	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%
16	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat byudjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklarasiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-026-3-47-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Do‘stlik tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
Xarajatlar miqdori, jami		**81 735 687,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo‘limi	23 291 594,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 203 740,0
2	Tibbiyot birlashmasi	
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	
3	Madaniyat bo‘limi	3 575 197,0
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	1 907 598,0
5	Sport bo‘limi	3 265 599,0
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 559 548,0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 022 973,0
8	Irrigasiya bo‘limi	628 910,0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 357 401,0
10	Davlat soliq inspekciyasi	0,0
11	Hokimyat	24 670 325,0
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*73 304,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*11 550,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*17 669 448,0*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*882 805,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 124 961,0*
12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	718 689,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*61 360,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*657 329,0*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	16 737 853,0
14	Boshqa tashkilotlar	

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-026-3-47-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Doʻstlik tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

Ming.soʻmda

Hudud nomi	Mahalliy budjetlarning jami daromadlari	Shundan,		Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Doʻstlik tumani	81 735 687,0	75 746 225,0	5 989 462,0	81 735 687,0

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-026-3-47-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Do‘stlik tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

Ming.so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Do‘stlik tumani	**392 000,0**

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-026-3-47-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

T/r	Hudud nomi	Koeffisient	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (ming.so‘mda)
1	A.Navoiy MFY	1,25	61 875
2	Bog‘zor MFY	0,84	41 580
3	Bunyodkor MFY	0,84	41 580
4	G‘.G‘ulom MFY	1,25	61 875
5	Qahramon MFY	0,84	41 580
6	Manas MFY	0,84	41 580
7	Mevazor MFY	0,84	41 580
8	Navro‘z MFY	0,84	41 580
9	Oltin vodiy MFY	0,84	41 580
10	Sanoatchilar MFY	1,25	61 875
11	Saritepa MFY	0,84	41 580
12	Chinobod MFY	1,25	61 875

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-026-3-47-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

T/r	Hudud nomi	Koeffisient	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	A.Navoiy MFY	0,83	394,42
2	Bog‘zor MFY	0,78	370,66
3	Bunyodkor MFY	0,75	356,4
4	G‘.G‘ulom MFY	0,83	394,42
5	Qahramon MFY	0,75	356,4
6	Manas MFY	0,75	356,4
7	Mevazor MFY	0,75	356,4
8	Navro‘z MFY	0,75	356,4
9	Oltin vodiy MFY	0,75	356,4
10	Sanoatchilar MFY	0,83	394,42
11	Saritepa MFY	0,75	356,4
12	Chinobod MFY	0,83	394,42